

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
2-son. 3-qism. Mart-2026**

“Bahr ul-asror”da Turkiston elining harbiy mahorati: manbashunoslik va tarixiy tahlil

Otabek Orifjon o‘g‘li Po‘latov
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi
Email manzil: pulatovotabek43@gmail.com
Telefon raqam: +998938076967

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Bahr ul-asror” asarida uchraydigan harbiy mahorat va jangovar tajriba bilan bog‘liq ma’lumotlar manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan harbiy yurishlar, qo‘shin harakati, jang taktikasi hamda harbiy hiylalar haqidagi ma’lumotlar o‘rganilib, ularning o‘rta asr Markaziy Osiyo harbiy madaniyatini yoritishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida asardagi ma’lumotlar boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, muallif tomonidan tasvirlangan harbiy tajriba va strategik yondashuvlarning tarixiy asoslari aniqlanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Bahr ul-Asror” asari nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki o‘sha davr harbiy san’ati, strategik tafakkuri hamda harbiy an’analarini o‘rganish uchun muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, mazkur asar Markaziy Osiyo harbiy madaniyati va harbiy mahorati tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy manba sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar. Bahr ul-Asror, harbiy mahorat, harbiy tarix, jang taktikasi, harbiy strategiya, Markaziy Osiyo, tarixiy manbalar, harbiy an’analar.

XVI–XVII asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy beqarorlik, sulolaviy kurashlar, ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek tashqi harbiy bosimlar bilan xarakterlanadi. Bu davrni o‘rganishda yozma manbalar, ayniqsa tarixiy-ensiklopedik va biografik xarakterdagi asarlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Mahmud ibn Vali tomonidan yozilgan “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” asari Turkiston hududlarining harbiy hayoti, jangovar mentaliteti va mudofaa tizimini o‘rganishda manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

Asar Ashtarxoniy hukmdor Nadr Muhammadxon topshirig'i bilan yozilgan bo'lib¹, muallifning Balx muhitida shakllangani uning qarashlariga siyosiy-strategik yo'nalish bergan. "Bahr ul-asror" ko'proq tasavvufiy-biografik ruhda yozilgan bo'lsa-da, unda hududlar, xalqlar, harbiy salohiyat, qal'alar, qurol tutish madaniyati hamda jangovar odatlar haqida muhim ma'lumotlar mavjud.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – asarni oddiy xronika sifatida emas, balki harbiy-etnografik va mentalitet manbasi sifatida talqin qilish hamda undagi ma'lumotlar asosida Turkiston hududlarining harbiylashuv darajasini aniqlashdir.

Tadqiqot quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanadi:

Birinchi, **manbashunoslik tahlili**. Asar muallifining ijtimoiy mavqei, siyosiy muhit va buyurtma asosida yozilganlik omili hisobga olinadi. Muallifning sub'ektivligi, diniy qarashlari va siyosiy pozitsiyasi tanqidiy yondashuv asosida baholanadi.

Ikkinchi, **matn ichki tahlili**. Hududlar tavsifi, harbiy sifatlar, qal'a tasvirlari, rivoyatlar va diniy iqtiboslar alohida kontekstda o'rganiladi. Harbiy mahoratga doir ma'lumotlar tasavvufiy-biografik qatlamdan ajratib olinadi.

Uchinchi, **qiyosiy tarixiy metod**. "Bahr ul-asror"dagi ma'lumotlar "Boburnoma", "Devoni lug'at at-turk" hamda boshqa tarixiy manbalar bilan qiyoslanadi. Bu orqali ma'lumotlarning tarixiy asoslanganlik darajasi aniqlanadi.

To'rtinchi, **harbiy-mentalitet** yondashuvi. Jamiyatning qurol tutish darajasi, safarbarlik salohiyati, jasorat va isyonkorlik tavsiflari kollektiv psixologiya nuqtai nazaridan talqin qilinadi.

Beshinchi, **harbiy-arxitektura** tahlili. Qal'alar joylashuvi, tabiiy relyefdan foydalanish, mudofaa strategiyasi tarixiy-geografik yondashuv asosida o'rganiladi. Mazkur metodlar asosida "Bahr ul-asror"dagi harbiy ma'lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy asosda qayta talqin qilinadi.

Mahmud ibn Vali voqealarni oddiy xronologik bayon etmaydi. U hududlarni tasvirlar ekan, tabiiy-geografik sharoit, aholi fe'l-atvori va siyosiy vaziyatni o'zaro bog'liq holda ko'rsatadi. Bu jihat asarni harbiy-etnografik manba sifatida o'rganish imkonini beradi. Biroq, muallifning siyosiy buyurtma asosida yozgani manbaga tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Turkiy xalqlar jangovar fazilatlarini ideallashtirish, ayrim hudud aholisini salbiy tasvirlash muallif sub'ektivligini ko'rsatadi. Shuningdek,

¹ ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, инв № 2372 3-а бет.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

hadis va diniy rivoyatlarning keltirilishi harbiy qudratni ilohiy asoslashga qaratilgan ideologik element sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu bois asardagi har bir tavsif tarixiy fakt sifatida emas, balki muallif pozitsiyasi bilan birga baholanadi.

Asarda chegaraviy hududlar aholisi doimiy ravishda qurol tutishga majbur bo'lgani qayd etiladi. Andijon va Farg'ona hududlarida ko'chmanchi qabilalar bosimi natijasida dehqon va oddiy qishloq aholisi ham kamon va o'qdon bilan yurgani tasvirlanadi². Bu holat harbiy mahorat tor professional qatlam bilan cheklanmaganini ko'rsatadi. Mazkur hodisani "ommaviy harbiylashuv" fenomeni sifatida talqin qilish mumkin. Bunda harbiylik kasbiy faoliyat emas, balki ijtimoiy zaruratga aylangan. Jamiyatda doimiy qo'shin mavjud bo'lsa-da, keng qatlam favqulodda safarbarlik salohiyatiga ega bo'lgan. Shosh (Toshkent) aholisi jasur, chavandoz va jangchi tabiatli sifatida tasvirlanadi³. Shu bilan birga, isyonkorlik va siyosiy markazga bo'ysunmaslik xususiyatlari qayd etiladi. Bu tavsif hududiy mustaqillik mentaliteti mavjudligini ko'rsatadi. Doimiy talonchilik va bosqinlarga qaramay, aholi o'z yurtini tark etmagan. Bu esa harbiy mentalitetning vatanga sadoqat bilan uyg'unlashganini anglatadi.

Asarda Termiz qal'asining Jayhunga tutash joylashgani⁴, Oqsu shahrining jarlik yoqasidagi mustahkam qal'asi⁵, Xisori Shodmonning tog' tepasidagi himoya tizimi haqida⁶ ma'lumotlar beriladi. Bu tasvirlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda mudofaa arxitekturasi tabiiy landshaft bilan uyg'un holda shakllangan. Daryo, tog' va jarlik tabiiy himoya vositasi sifatida qo'llangan. Bu esa harbiy muhandislik tafakkuri rivojlanganini anglatadi. Qal'alar nafaqat harbiy markaz, balki siyosiy barqarorlik ramzi sifatida ham namoyon bo'ladi. Siyosiy hokimiyat tez-tez almashgan hududlarda qal'a mudofaasi kuchli bo'lgani qayd etiladi.

Mahmud ibn Vali turkiy xalqlarning jangovar qudratini diniy asos bilan mustahkamlaydi. Hadis keltirilishi harbiy kuchni ilohiy iroda bilan bog'lashga xizmat qiladi⁷. Bu modelda hukmdor sarkarda bilan birga din himoyachisi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv XVI–XVII asrlarda siyosiy hokimiyatning harbiy-diniy

² O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 242a, 317a-betlar.

³ O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 242a, 317a-betlar.

⁴ Yuqoridagi asar... – 250b-bet.

⁵ Yuqoridagi asar... – 247b-bet.

⁶ Yuqoridagi asar... – 205b-bet.

⁷ Yuqoridagi asar... – 267b-bet.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

asosda shakllanganini ko'rsatadi. Harbiy harakatlar faqat strategik emas, balki ma'naviy vazifa sifatida talqin qilinadi.

Asarda yada toshi, kosmik belgilar, Turon va Eron tepaliklari haqidagi rivoyatlar uchraydi⁸. Bu ma'lumotlarni tarixiy fakt sifatida emas, balki mentalitet va kollektiv tasavvur manbasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. "Boburnoma" va "Devoni lug'at at-turk" bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ayrim afsonaviy unsurlar real tarixiy kontekstga ega. Bu esa harbiy tafakkurda mifologik elementlar muhim o'rin tutganini bildiradi.

"Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor" asari Turkiston hududlarining harbiy hayoti va jangovar mentalitetini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar asosida quyidagi ilmiy natijalarga kelish mumkin:

Birinchidan, XVI–XVII asrlarda Turkiston jamiyatida harbiy mahorat ommaviy xarakter kasb etgan.

Ikkinchidan, chegaraviy hududlarda doimiy harbiylashuv jarayoni mavjud bo'lgan.

Uchinchidan, qal'a arxitekturasi tabiiy-geografik sharoit bilan uyg'un holda rivojlangan.

To'rtinchidan, harbiy qudrat siyosiy hokimiyat va diniy legitimatsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Shunday qilib, "Bahr ul-asror" Markaziy Osiyo harbiy tarixini kompleks yondashuv asosida o'rganish imkonini beruvchi tayanch manbalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

"Bahr ul-asror"dagi ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, XVI–XVII asrlar Turkiston jamiyatida harbiylik tor professional qatlam bilan cheklanmagan. Asarda dehqonlar, hunarmandlar, hatto diniy ulamolar zarurat tug'ilganda qurol tutishga majbur bo'lgani qayd etiladi. Bu hodisani harbiy sotsiologiya nuqtai nazaridan "yarim professional harbiylashgan jamiyat" modeli sifatida talqin qilish mumkin.

Mazkur modelda doimiy qo'shin mavjud bo'lsa-da, keng ijtimoiy qatlam favqulodda safarbarlik imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday tuzilma ko'chmanchi harbiy an'analari bilan o'troq mudofaa madaniyatining sintezidan shakllangan. Otliq qo'shin

⁸ Yuqoridagi asar... – 348a-bet.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

ustunligi, kamondan foydalanish, sovut va himoya vositalarining keng tarqalishi⁹ bu tizimning asosiy belgilaridan biridir.

Asarda qayd etilishicha, ko'plab hududlarda oddiy aholi ham kamon va o'qdon bilan yurgan. Bu ma'lumot safarbarlik salohiyati yuqori bo'lgan jamiyat mavjudligini ko'rsatadi. Bunday tuzilma siyosiy beqarorlik sharoitida tirik qolish strategiyasi sifatida shakllangan bo'lishi ehtimol. Shosh aholisi haqidagi tasvirlar ayniqsa muhimdir. Ular jasur, dovyurak va jangchi sifatida ta'riflanadi. Shu bilan birga, isyonkorlik va itoatsizlik xususiyatlari qayd etiladi. Bu ikki jihat hududiy mustaqillik ruhini aks ettiradi. Siyosiy markazning zaiflashuvi sharoitida hududiy kuch markazlari shakllanib, harbiylashuv yuqori darajada bo'lgan. Bu mentalitet doimiy tahdid sharoitida shakllangan kollektiv psixologiyaning mahsulidir. Asarda qayd etilishicha, ayrim hududlarda mol-mulk talon-taroj qilinmagan, xotin-bolalar asir olinmagan yil deyarli bo'lmagan. Shunga qaramay, aholi yurtini tark etmagan. Bu esa harbiy mentalitet vatanga sadoqat va hududiy identitet bilan chambarchas bog'langanini anglatadi.

Mahmud ibn Vali hududlarni tasvirlar ekan, tabiiy-geografik sharoitni harbiy salohiyat bilan bog'liq holda ko'rsatadi. Bu jihat asarning ilmiy qimmatini oshiradi. Farg'ona viloyati ta'rifida aholi jasur va uddaburon sifatida ko'rsatiladi¹⁰. Shu bilan birga, fiqh ulamolarining ko'pligi qayd etiladi. Bu ilm va harbiylik uyg'unligini bildiradi. Mazkur uyg'unlik intizom, tafakkur va strategik fikrlash elementlarini kuchaytirgan bo'lishi mumkin.

Oqsu shahri jarlik yoqasida joylashgan mustahkam qal'aga ega sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir strategik joylashuvning ahamiyatini ko'rsatadi¹¹. Tabiiy relyefdan samarali foydalanish mudofaa tizimini mustahkamlagan. Xisori Shodmonning tog' tepasida joylashgani esa yuqori nuqtadan kuzatuv va himoya imkonini bergan. Bu joylashuv dushmanni uzoqdan aniqlash va hujumni kechiktirish imkonini yaratgan. Termiz qal'asining Jayhunga tutash joylashuvi suv to'sig'idan mudofaa vositasi sifatida foydalanilganini ko'rsatadi. Bu Markaziy Osiyoda harbiy muhandislik tafakkuri shakllanganini bildiradi.

Asarda turkiy sulolalarning Movarounnahr, Xorazm, Balx, Qashg'ar, Xuroson, Hindiston va hatto Rum hududlarida hukmronlik qilgani qayd etiladi. Bu ma'lumot

⁹ O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 317a-bet.

¹⁰ O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 317a -bet.

¹¹ Yuqoridagi asar... – 247b-bet.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

turkiy harbiy salohiyat mintaqaviy emas, balki transregional miqyosda namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, bu yerda muallifning ideallashtirish tendensiyasi ham e'tiborga olinishi lozim. Turkiy xalqlar jangovar fazilatlarini bo'rttirib ko'rsatish siyosiy-legitimatsion maqsadga xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Shu bois ma'lumotlar boshqa manbalar bilan qiyosiy tekshiriladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, "Boburnoma" va boshqa manbalarda ham otliq qo'shin ustunligi, tezkorlik va harbiy harakatchanlik alohida ta'kidlanadi. Bu esa "Bahr ul-asror"dagi ma'lumotlarning umumiy tarixiy kontekst bilan mos kelishini tasdiqlaydi.

Asarda yada toshi, kosmik belgilar va Turon-Eron rivoyatlari keltiriladi¹². Bu unsurlarni to'g'ridan-to'g'ri tarixiy fakt sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Ularni mentalitet va ramziy tafakkur ifodasi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Harbiy yurishlarni kosmik belgilar bilan bog'lash jangovar harakatlarning ma'naviy asosini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu psixologik omil askarlarning ruhiy tayyorgarligini oshirish vositasi bo'lgan bo'lishi mumkin. Demak, asarda mifologik qatlam va real harbiy amaliyot o'zaro uyg'un holda mavjud.

Mahmud ibn Vali asarini baholashda quyidagi omillar hisobga olinishi zarur:

Birinchi, asar hukmdor topshirig'i bilan yozilgan. Bu siyosiy ideologiya elementlarini kuchaytirgan bo'lishi mumkin.

Ikkinchi, ayrim hududlar haqidagi salbiy yoki ijobiy tavsiflar muallif sub'ektivligini aks ettiradi.

Uchinchi, diniy legitimatsiya unsurlari siyosiy hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi ehtimol.

Shunga qaramay, asardagi hududiy tavsiflar, qal'a tasvirlari va harbiy ma'lumotlar real tarixiy jarayonlarni aks ettiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Bahr ul-asror" XVI–XVII asrlar Turkiston hududlarining harbiy hayotini o'rganishda kompleks manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Asar harbiy mahoratni geografik sharoit, ijtimoiy tuzilma va siyosiy vaziyat bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini beradi.

"Bahr ul-asror"da qayd etilgan qal'a va mudofaa inshootlari haqidagi ma'lumotlar XVI–XVII asrlar Turkiston hududlarida harbiy-muhandislik tafakkuri ma'lum darajada shakllanganini ko'rsatadi. Muallif ayrim shahar va qal'alarni tasvirlar

¹² O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 315b -bet.

O'RTA OSIYODA IJTIMOY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

ekan, ularning geografik joylashuvi, tabiiy to'siqlar bilan uyg'unligi hamda mudofaa imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadi.

Termiz qal'asining Jayhun (Amudaryo) bilan tutash hududda joylashgani qayd etiladi¹³. Bu holat daryodan tabiiy himoya vositasi sifatida foydalanilganini ko'rsatadi. Daryo nafaqat transport va savdo yo'li, balki strategik mudofaa chizig'i vazifasini ham bajargan. Bunday joylashuv qal'ani dushman hujumidan tabiiy ravishda himoyalagan.

Sag'oniyon va Xisori Shodmon haqidagi tasvirlar ham e'tiborga molikdir. Xisori Shodmon baland tog' tepasida joylashgan mustahkam qal'a sifatida tavsiflanadi¹⁴. Bunday joylashuvning harbiy afzalliklari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Dushman harakatini uzoqdan kuzatish imkoniyati.
2. Himoya chizig'ini bosqichma-bosqich tashkil etish.
3. Qal'aga yetib kelishni murakkablashtirish.

Bu ma'lumotlar qal'a qurilishida tabiiy relyefdan ongli ravishda foydalanilganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu jarayon Markaziy Osiyoda harbiy arxitektura faqat devor va minoralar bilan cheklanmaganini, balki landshaft bilan uyg'un holda qurilganini anglatadi.

Asarda siyosiy hokimiyatning tez-tez almashishi, xutbaning turli hukmdorlar nomiga o'qilishi haqidagi ma'lumotlar¹⁵ harbiy-siyosiy beqarorlikni ko'rsatadi. Bunday vaziyat jamiyatni doimiy safarbarlik holatida ushlab turgan.

Qirg'iz, qalmaq va qozoq qabilalarining tez-tez bostirib kirishi hamda talonchilik harakatlari hudud iqtisodiyotiga zarar yetkazgan¹⁶. Bu esa aholini qurol tutishga majbur qilgan. Natijada jamiyatda harbiy tayyorgarlik zaruriy ijtimoiy ko'nikmaga aylangan. Dehqon va hunarmandning ham qurol tutishi¹⁷ aynan shu siyosiy beqarorlik mahsuli sifatida talqin qilinadi.

Kesh (Shahrisabz) aholisi jasur va bilimga intiluvchan sifatida tasvirlanadi¹⁸. Bu yerda Muhammad Shayboniyxon qabri joylashgani haqidagi eslatma siyosiy-ramziy ahamiyatga ega. Hukmdor xotirasining muqaddas makon bilan bog'lanishi siyosiy legitimatsiyani mustahkamlagan. Bu yerda harbiy tarixiy xotira va siyosiy hokimiyat

¹³ O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 267a -bet.

¹⁴ Yuqoridagi asar... – 308b-bet.

¹⁵ Yuqoridagi asar... – 247b-bet.

¹⁶ O'sha joyda.

¹⁷ O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 242b-bet.

¹⁸ Yuqoridagi asar... –325a-bet.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

o'zaro uyg'unlashgan. Qabriston va muqaddas maskanlar hukmdorlar siyosiy nufuzini mustahkamlash vositasiga aylangan.

Mahmud ibn Vali turkiy sulolalar hukmronligini alohida qayd etadi¹⁹. Ularning keng hududlarda siyosiy nazorat o'rnatgani harbiy qudrat bilan bevosita bog'liq.

“Bahr ul-asror”dagi ma'lumotlarni boshqa manbalar bilan qiyoslash ularning tarixiy asoslanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

“Devoni lug'at at-turk”da yada toshi haqida berilgan ma'lumot²⁰ Mahmud ibn Vali keltirgan rivoyat bilan uyg'unlik kasb etadi.

“Boburnoma”dagi 1528-yilgi jang epizodi²¹ esa yada toshining jangovar kontekstda qo'llanilganini tasdiqlaydi. Bu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, asardagi ayrim afsonaviy unsurlar tarixiy xotira asosiga ega.

Asarda Turkiston aholisi o'z yurtini boshqa mamlakatlardan ustun qo'yishi, tashqi zulmga toqat qilmasligi qayd etiladi²². Bu hududiy identitet kuchli bo'lganini ko'rsatadi.

Xuttalon aholisi haqidagi salbiy tavsif²³ esa muallifning sub'ektiv pozitsiyasini aks ettiradi. Bu jihat manbaga tanqidiy yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” asarining manbashunoslik va tarixiy-tahliliy o'rganilishi XVI–XVII asrlar Turkiston hududlarida shakllangan harbiy tizim, jangovar mentalitet va mudofaa tafakkuri haqida kompleks ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Mazkur asar faqat siyosiy voqealar majmui emas, balki jamiyatning harbiylashuv darajasi, safarbarlik modeli, hududiy identiteti va diniy-siyosiy legitimatsiya mexanizmlarini aks ettiruvchi ko'p qatlamli manba sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiston jamiyatida harbiy mahorat tor professional qatlam bilan cheklanmagan, balki keng ijtimoiy qatlamga singib ketgan. Dehqon, hunarmand va boshqa fuqaroviy guruhlarning ham zarurat tug'ilganda qurol tutishi jamiyatda safarbarlik salohiyati yuqori bo'lganini bildiradi. Bu holatni “yarim professional harbiylashgan jamiyat” modeli orqali izohlash mumkin. Ya'ni, doimiy qo'shin mavjud bo'lgan holda, ommaviy qatlam favqulodda harbiy safarbarlik

¹⁹ Yuqoridagi asar... – 267b-bet.

²⁰ Махмуд Қошқарий. Девону луғати – турк. – Тошкент: Фафур Ғулом, 2017. – 320-бет.

²¹ Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: О'qituvchi, 2008. – 226^b-бет.

²² O'zR FA SHI qo'lyozmasi, inv № 2372. 342b-bet.

²³ Yuqoridagi asar. 283a-bet.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bunday tuzilma ko‘chmanchi harbiy an‘analari bilan o‘troq mudofaa madaniyatining sintezidan shakllangan.

Chegara hududlarida yashovchi aholi qatlamlarining doimiy ravishda qurol tutishga majbur bo‘lgani haqidagi ma‘lumotlar harbiylashuv jarayonining strukturaviy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu yerda harbiy tayyorgarlik favqulodda emas, balki kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Natijada jangovar ko‘nikmalar kollektiv psixologiya va ijtimoiy ong darajasida mustahkamlangan.

Hududiy tavsiflar, xususan Shosh, Farg‘ona, Oqsu va boshqa viloyatlar haqidagi ma‘lumotlar harbiy mentalitetning geografik omillar bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Tog‘li, daryo va jarlik hududlarda mudofaa tizimi kuchli shakllangan bo‘lsa, ochiq dasht zonalarida otliq qo‘shin ustunligi va harakatchanlik asosiy strategik omil bo‘lgan. Bu esa harbiy tafakkur tabiiy landshaft bilan uyg‘un holda rivojlanganini anglatadi.

Qal‘a arxitekturasi haqidagi ma‘lumotlar Markaziy Osiyoda harbiy-muhandislik tafakkuri yetarli darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Daryo, tog‘ va jarlik kabi tabiiy to‘siqlardan foydalanish, strategik joylashuvni hisobga olish, ko‘p bosqichli mudofaa tizimini tashkil etish harbiy rejalashtirish madaniyatining rivojlanganidan dalolat beradi. Bu jarayon ko‘chmanchi jangovar harakatchanlik bilan o‘troq qal‘a mudofaasi tajribasining sintezini aks ettiradi.

Mahmud ibn Vali tomonidan turkiy xalqlarning jangovar fazilatlarini alohida urg‘u bilan tasvirlash hamda hadis keltirish orqali harbiy kuchni diniy legitimatsiya bilan bog‘lash XVI–XVII asrlar siyosiy modelining muhim xususiyatini ochib beradi. Harbiy qudrat siyosiy hokimiyatning asosiy tayanchi sifatida talqin etiladi va ilohiy iroda bilan as

oslanadi. Bu holat “harbiy-diniy legitimatsiya modeli”ning shakllanganini ko‘rsatadi. Hukmdor sarkarda va din himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi, natijada harbiy harakatlar ma‘naviy vazifa sifatida talqin etiladi.

Asarda uchraydigan yada toshi va kosmik belgilar haqidagi rivoyatlar tarixiy fakt sifatida emas, balki harbiy mentalitet va ramziy tafakkur ifodasi sifatida baholanishi lozim. Qiyosiy tahlil (“Devoni lug‘at at-turk”, “Boburnoma”) bu rivoyatlarning tarixiy xotira qatlamiga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu esa harbiy tafakkurda mifologik va psixologik omillar muhim o‘rin tutganini bildiradi.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 3-qism. Mart-2026

Umuman olganda, “Bahr ul-asror” asosida XVI–XVII asrlar Turkiston jamiyatining harbiy tizimi quyidagi strukturaviy xususiyatlarga ega bo‘lganini aniqlash mumkin:

- Ommaviy safarbarlik salohiyati va yarim professional harbiylashuv modeli;
- Otlq qo‘shin ustunligi va tezkor harakat strategiyasi;
- Tabiiy-geografik omillar bilan uyg‘unlashgan mudofaa arxitekturasi;
- Harbiy qudratning siyosiy va diniy legitimatsiya bilan mustahkamlanishi;
- Harbiy mentalitetning hududiy identitet va kollektiv psixologiya bilan uyg‘unligi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror fi manoqib al-akhyor. – Toshkent: Fan, 1977.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Rashididdin Fazlulloh. Jome’ at-tavorix. – Toshkent: Fan, 1998.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.
6. Mirzo Ulug‘bek. Tarixi arba’ ulus (To‘rt ulus tarixi). – Toshkent: Fan, 1994.
7. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. (fors tilidan tarjima va izohlar bilan). – Toshkent: Fan, 1977.
8. Ahmedov B. A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
9. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010.
10. Ahmedov B. A. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
11. Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
12. Morgan D. The Mongols. – Oxford: Blackwell Publishing, 2007.
13. Sinor D. The Cambridge History of Early Inner Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.